

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR HAYOTIDA SPORTNING AHAMIYATI

**Odilova Hidoyat**

*TAFU Pedagogika kafedrası  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida sport va jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, maktabgacha ta'lim muassasasi, harakat faoliyati, tarbiyachi, bola, sog'lomlashtirish.

**Аннотация:** В статье описано значение спорта и физического воспитания в жизни детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, дошкольное образовательное учреждение, двигательная активность, воспитатель, ребенок, оздоровление.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog'lom va baquvvat qilib o'stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta'lim va tarbiyani to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lomlashtirish vazifalari - bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo'lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog'lig'ini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish juda zarur, bolaning ongli harakat faoliyatida asqotadigan ayrim bilimlar; bolani harakatlarga o'rgatuvchi faoliyat metodlari, faoliyat va ularni amalga oshirishning malaka va ko'nikmalari haqidagi bilimlar birligi ish jarayonlaridan kelib chiqqan holda tarkibiy qismlarni tashkil etadi. Qismlardan biri ijodiy faoliyat tajribasi hisoblanadi. Bolalikdan mustaqil fikrlashga o'rgatilmagan va hamma narsani tayyor berilgandan so'ng o'zlashtiradigan kishi unga tabiat tomonidan berilgan sifatlarni namoyon qila olmaydi. Shuning uchun jamiyat yosh avlodning ijodiy faoliyatga o'rganishiga tamoman befarq qarab turolmaydi. Harakat faoliyatini tarbiyalash jarayonida kattalar (otaonalar, tarbiyachilar) bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular oldiga yangi harakat vazifalarini qo'yadilar. Bolaning mashqlar jarayonida yangi harakat vazifalarini tobora hal eta borishi va shu bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan katta imkoniyatlar harakatlar xarakteri va sifatini o'zgartiradi. Bu yosh davri uchun juda xarakterli bo'lgan narsa yangi mashqlarga o'rgatish jarayonida go'yo bir aylanib yangicha sifat kasb etadi. Chunonchi, bolaning yurishi dastlabki paytda va ikkinchi yilning oxirida butunlay farq qiladi. Bu hodisani yangilikning eski narsani diakttik inkori, barcha rivojlanishning va ziddiyatlarni hal etishning obyektiv sharti,

harakatlanuvchi omil sifatida ko'rsatish mumkin. Har bir sohada rivojlantirish o'zidan oldingi yashash shakllarini inkor etmasdan kechishi mumkin emas. Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxs sifatida shakllanishida atrof muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiatda jismoniy mashqlarni o'rgatish orqali ham singdirish mumkin.

Dunyoda maktabgacha ta'lim davridan bolalarni shaxs sifatida shakllantirishning innovatsion modellarini amaliyotga tatbiq etish dolzarb sanalmoqda. Bolalarni tevarak-atrofga ekologik munosabat axborot muhitga mos ravishda tayyorlashda kognitiv omillarni inobatga olishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. BMTning "Ta'lim barcha uchun" dasturida XXI asrga xos bolgan ijtimoiy konikmalarni ilk davrdan rivojlantirish masalasi markaziy orin egallaydi. Bu esa, bolalarda axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabati birligiga asoslangan maqsadli shakllantirish hamda motivatsion yonalgan tevarak-atrofga ekologik munosabati ko'nikmalarini rivojlantirishsiz amalga oshmaydi. Shu bois, maktabgacha ta'lim jarayonida tabiatga ehtiyoj tug'diruvchi ta'lim shakllari hamda texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limi davrida turli oquv fanlarini samarali egallashga axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabati va kognitiv jihatdan kompleks tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda variativ yondashuvlarini amaliyotga joriy etish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabati shakllantirish orqali atrof-olamni anglash malakalarini rivojlantirish tizimli pedagogik ta'sir hamda metodik yondashuvlarga asoslanadi. Bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, maktab hamda ijtimoiy institutlar integrativ faoliyati taqozo etiladi. Bu jarayonning pedagogik modelini modernizatsiyalashda bolalarda rivojlanishi talab etiluvchi soha kompetensiyalarini integrativ rivojlanishini ta'minlovchi samarali texnologiyalarni tanlash, joriy etish talab etiladi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va jahon standartlari darajasida optimallashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari takomillashtirildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish maqsadida o'quv-tarbiyaviy jarayonni zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, innovatsion ta'lim shakllari hamda texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday o'lkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham

qarz, ham farzdir<sup>1</sup>. Maktabgacha ta'limda bolalarni aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik omillari, didaktik tamoyillarini zamonaviy kontekstda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, bolalarni axborot muhitida samarali tevarak-atrofga ekologik munosabat orqali ularni maktab ta'limiga tayyorlashning didaktik ta'minoti hamda axborotli muhitini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son - Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son—2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori, 2019-yil 13-maydagi 391-son Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabati va ularda ekologik munosabat orqali muloqot madaniyatini shakllantirish bo'yicha yurtimiz pedagog olimlaridan F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, D.R.Babayeva, Q.Shodiyeva, G.O.Najmiddinova, M.Asqarova, P.Yusupova, A.T.Nurmanov, F.H.Aminova, M.Yu.Mahkamova, Q.A.Rasulov va A.F.Muhiddinov, M.Maqsudova, P.S.Ergasheva va Z.Nishonova kabi tadqiqotchilar tomonidan jarayonning nazariy-metodologik asoslari o'rganilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Flerina, L.Verbiskaya, L.Vigotskiy, L.Volkova, V.Seliverstov, I.Romanova, I.Novichkova, A.Tambovseva, O.Safonova kabi olimlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabat asosida muloqotga kirishish va idrok etish texnikasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Xorij olimlaridan A.Maler, G.Sikito, J.Marileyn, M.Joanna, P.Laydia, S.Egli, D.Faulkner, L.Plouvman va S.Stepenlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalar savodxonligini rivojlantirish, axborot muhitida atrofga munosabatni tanib olish, boshqotirma va raqamli texnologiyalar orqali dastlabki o'rganishni qo'llab-quvvatlash, erta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ijodkorlik va madaniy innovatsiyalarning o'rni tadqiq etilgan. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: —O'zbekistonl, 2019. –B. 26.

bolalarni jismoniy, ruhiy, aqliy va intellektual jihatdan har tomonlama salohiyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim masalalari darajasiga ko'tarilgan. Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni samarali axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabat texnologiyasini shakllantirishga oid ushbu tadqiqot ishi dolzarb sanaladi.

-maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va samarali omillarini aniqlash;

-maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini intensiv o'rgatish modelini takomillashtirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini shakllantirish.

-maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida ekologik munosabatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ijtimoiy sheriklik va ekologik idrok omillariga asoslangan o'quv muhitiga aniq sifatli ta'lim ustuvorligi tamoyillarini axborot muhiti asosida tevarak-atrofga munosabatini joriy etish asosida aniqlashtirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini pedagogik shart-sharoitlari bolalarda intensiv rivojlantiruvchi variativ yondashuvlarni pedagoglarning metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan axborotli-hamkorlik muhitida sifat va miqdor mutanosibligida qo'llash asosida aniqlashtirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirish modeli —atrof-muhit, tabiaat, ekologiya bolalarning akademik-ijodiy, yashil makon-motivatsion harakat trayektoriyasini faol tashkil etishga moljallangan ekologik munosabatni ifodalash o'quv topshiriqlarini teskari ta'lim elementlariga adaptivlashtirish asosida takomillashtirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini shakllantirishda "yashil makon platformasi" asosida harakat vositalariga asoslangan hamkorlik texnologiyalari dialogik muhitda ritmik-emotsional qo'llash asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini shakllantirish jihatdan tayyorlashni ko'zda tutuvchi maktabga tayyorlashning mazmuni, ish turlari, shakllari va texnologiyalari milliy, xorijiy tajribalarda ilgari surilgan nazariy qarashlar, huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan vazifalar doirasida tadqiq etilganligi hamda davlat o'quv dasturi

talablari bo'yicha bolalar yosh xususiyatlari inobatga olingan integrativ mashg'ulotlar majmualarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini shakllantirish va ekologik savodxonlik mashg'ulotlarini, tarbiyachilar malakasini oshirish kurslari dasturlarini mazmunan boyitishga xizmat qilishi hamda oliy ta'lim muassasalarining Maktabgacha ta'lim pedagogikasi, Tabiat bilan tanishtirish, Maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostika, Maktabgacha ta'limni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish, Mediasavodxonlik va axborot madabniyati kabi ixtisoslik modullari mazmunini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek Uralovich Abdimurotov (2021). —YEVROSIYO MATERIGINI O'QITISHDA -KEYS STADI METODIDAN FOYDALANISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 377-382. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00048
2. Шерзод Иброхим Ўғли Иброимов, & Ақтути Араповна Туйчибекова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИ ФАОЛИЯТИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ ВА ПСИХОЛОГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ (ТАБИЙ ФАНЛАР МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (Special Issue 1), 456-471.
3. Sherzod Ibroim Oglu Ibroimov, & Xaytgul Omonboevna Begalievva (2021). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА —ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 438-445.
4. Ражабов, Ф. Т., & Абдимуротов, О. У. (2020). ТАБИЙ ГЕОГРАФИЯ КУРСЛАРИДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚўЛЛАШ УСЛУБИЎТИ. Academic research in educational sciences, (4), 663-671.
5. Nigmatov A.N. Ekologiya Asosiy atama va iboralarning izoxli lug'ati. - T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001.
6. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma'naviyat. T.: «Mehnat» nashriyoti, 1997.
7. To'xtayev A.S. Ekologiya Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001.
8. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish: O'qituvchilar uchun fakultativ kurs yuzasidan qo'llanma. - T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1991.
9. M. Umarova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.
10. SH.Sodiqova, M.A.Rasulxojayeva Tabiat bilan tanishtirish metodikasi- T.: 2013 yil —Fan va texnologiyal